



XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2024 - yil 29 - yanvar

VI-85-2-10-0-K/24

Toshkent viloyati hokimiligi

Mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga asosan hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi 331-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq viloyat mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish yuzasidan bildirilgan takliflarni inobatga olgan holda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari hamda mutasaddi tashkilot rahbarlari tomonidan viloyat mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish yuzasidan bildirilgan takliflari ma’qullansin.

2. Bildirilgan takliflarga asosan mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan:

viloyat bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan **ilovaga** muvofiq tadbirlarni bosqichma-bosqich moliyalashtirishga rozilik berilsin.

3. Viloyat byudjetining qo'shimcha manbalaridan mablag' oluvchi mutasaddi idora va tashkilotlar rahbarlari ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag'larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar hisoblanishi belgilab qo'yilsin hamda ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishi bo'yicha Xalq deputatlari viloyat Kengashiga hisobot kiritib borsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi Muradjan Nasirov hamda viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari Abdurasul Abdullayev zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari viloyat
kengashi raisi**



Z.Mirzayev

Xalq deputatlari Toshkent
viloyat Kengashining
2024-yil 29-yanvardagi
VI-85-2-10-0-K/24-son qaroriga
1-ilova

**Mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan
tadbirlarga
ajratilishi ko‘zda tutilgan mablag‘lar to‘g‘risida ma’lumot**

mln.so‘m

T/r	Mablag‘ ajratish maqsadi	Asos	Ajratiladigan mablag‘
*	Jami	X	5 700,0
1.	Viloyat xalq qabulxonasiga gaz hisoblagich xarid qilish xarajatlari uchun	Viloyat xalq qabulxonasi mudiri E.Qudratovning bildirgisi	38,0
2.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunga bag‘ishlab o‘tkazilgan tadbirni o‘tkazish xarajatlari uchun	Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abdullayev, hokim o‘rinbosari O.Sultonbekov bildirgisi	27,0
3.	2024-yil uchun hokimlikka kerak bo‘ladigan xo‘jalik buyumlari xaridi uchun	Viloyat Ishlar boshqarmasi ish boshqaruvchisi A.Mixmanov bildirgisi	84,0
4.	Qumariq mahallasida “Jurnalistlar bog‘i”ning suv ta‘minotini yaxshilash xarajatlari uchun	Viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Maxmudov bildirgisi	840,0
5.	“Obod qishloq” dasturi doirasida Bekobod va Zangiota tumanlaridagi ijtimoiy soha obyektlarini ta‘mirlash xarajatlari uchun	“Yagona buyurtmachi xizmati” DUKning 2023-yil 9-noyabrda 04/3399-sonli nxati	145,0
6.	Qo‘qon shahrida o‘tkaziladigan Xalqaro Hunarmandchilik festivalida Toshkent viloyati ishtirokini ta‘minlash va sarf-xarajatlar uchun	Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abdullayev bildirgisi	250,5
7.	Toshkent viloyati Xalq qabulxonasiga biriktirilgan “Captiva-4” rusumli davlat raqami 10 201 PXQ avtomashinasini ta‘mirlash xarajatlari uchun	Viloyat Ishlar boshqarmasi ish boshqaruvchisi A.Mixmanov bildirgisi	31,2
8.	Oqqo‘rg‘on tumani “Boyg‘uli” MFYda “Obod mahalla”, “Obod xonadon” mezonlari doirasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar uchun	Oqqo‘rg‘on tumani hokimining 2023-yil 20-noyabrda 1-22-342-sonli xati	2 000,0
9.	Yangiyo‘l shahar jun 35/6 kva nimstansiyasiga transformator harid qilish va o‘rnatish xarajatlari uchun	Viloyat hokimining o‘rinbosari B.Meliyevning bildirgisi	2 284,3